

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMMUNIKATIV
KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDAGI METADOLOGIK
YONDASHUVLAR**

Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o‘g‘li,
Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kommunikativ ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining metodologik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy pedagogik ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan yangi kompetensiyaviy talablar ochib beriladi. Tadqiqotda tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va aksiologik yondashuvlarning mohiyati yoritilib, ularning integratsiyasi kasbiy kommunikativ kompetensiyani samarali shakllantirishning muhim sharti sifatida asoslab beriladi. Shuningdek, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va pedagogik texnologiyalarning o‘qituvchi kommunikativ salohiyatini rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kommunikativ kompetensiya, metodologik yondashuvlar, tizimli yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim, kompetensiyaviy yondashuv, aksiologik yondashuv, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, raqamli ta‘lim.

Introduction

Bugungi kunda pedagogik ta‘limda bo‘lajak o‘qituvchilarga qo‘yilayotgan talablar ortib borayotgan bir paytda, ularning kasbiy tayyorgarlik darajasi, xususan, kasbiy kommunikativ ko‘nikmalarining shakllanganligi — zamonaviy ta‘lim sifatining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Oliy pedagogik ta‘lim tizimida o‘qituvchining kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish nafaqat bilim berish, balki axloqiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan yetuk shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta‘lim jarayonida mutaxassisning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, kommunikativ kompetensiyalari — fanlarni o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vositalari asosida integratsiyalashgan tarzda shakllantiriladi. Bu esa interfaol, o‘zaro hamkorlikka asoslangan ta‘lim uslublarining faol joriy etilishini taqozo etadi. Kasbiy faoliyat uchun zarur ko‘nikmalarni rivojlantirish pedagogik texnologiya nuqtai nazaridan global (umummilliy), bosqichma-bosqich va tezkor (operativ) darajalarda boshqarilishi lozim. Ayniqsa, o‘qituvchi tayyorlash jarayonida ushbu yondashuvlar dars dizayni, muloqotga yo‘naltirilgan topshiriqlar va tahliliy faoliyatlar orqali ifodalanadi.

Pedagogik faoliyatda yangi metodikalardan samarali foydalanish — o‘qituvchi shaxsining raqobatbardoshligini oshirish, o‘quvchilarning kommunikativ rivojlanishiga ta’sir qilish va mustahkam ijtimoiy aloqa o‘rnatish uchun zarurdir. Shu bois, pedagog zamonaviy raqamli texnologiyalarni chuqur bilishi, undan o‘quv mashg‘ulotlarida mustaqil va kreativ tarzda foydalana olishi kerak. Bu — ta‘lim sifati va muloqot samaradorligining ajralmas omilidir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda o'qitishning texnik vositalaridan — virtual sinf xonalari, raqamli platformalar, interaktiv taqdimotlar, online feedback tizimlari, vizual kommunikatsiya vositalari (infografika, ta'limiy animatsiyalar)dan foydalanish muhim hisoblanadi. Bu nafaqat dars jarayonining jonlanishiga, balki o'qituvchining o'z faniga ijodiy yondashuvini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Oliy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri — bu bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ kompetentligini raqamli texnologiyalar bilan uyg'un holda shakllantirishdir. Chunki jamiyatda yuz berayotgan tub o'zgarishlar, axborot texnologiyalarining hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib borishi o'qituvchi shaxsiga nisbatan ham yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda. Bunda ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) vositalaridan samarali foydalanish — faqat texnik vosita emas, balki o'qituvchi shaxsini rivojlantiruvchi vosita sifatida qaralmoqda.

Tizimli yondashuv. Tizimli yondashuv o'zaro bog'langan elementlar va ularning o'zaro munosabatlaridan tashkil topgan yaxlit tizimni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu yondashuv bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini kompleks va ilmiy asoslangan tarzda tashkil etish, shuningdek, o'qituvchi shaxsining ta'lim muhiti bilan o'zaro aloqasini chuqur anglash imkonini beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Mazkur yondashuv bo'lajak o'qituvchi shaxsini markazga qo'ygan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bunda o'qituvchi o'zining o'qituvchilik potensialini mustaqil namoyon eta oladigan, raqamli muhitda o'z fikrini aniq va ravon ifoda eta oladigan, madaniy-etnik kontekstga mos muloqot shakllarini qo'llay oladigan mutaxassis sifatida shakllanishi kerak. Bu yondashuv shuningdek har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib, ularni kommunikativ jihatdan o'sishiga ko'maklashadi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, bo'lajak o'qituvchining kasbiy kommunikativ kompetentligini shakllantirish — bu uning faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, shaxsiy sifatu qadriyatlar majmuasini amaliyotda qo'llay olish darajasini ifodalaydi. Ayniqsa, bugungi ta'limda raqamli platformalarda dars o'tish, vebinarlar tashkil qilish, forum va guruhli muhokamalarda samarali qatnashish o'qituvchidan aniq kommunikativ kompetensiyalarni talab etadi.

Aksiologik yondashuv. Bu yondashuv o'qituvchi kasbiy faoliyatining ichki — ma'naviy, axloqiy va qadriy jihatlarini aks ettiradi. Bo'lajak o'qituvchi shunchaki bilim egasi emas, balki o'z qadriyatlariga ega pedagogik shaxs sifatida shakllanishi lozim. Shuningdek, u o'zining muloqotdagi mas'uliyatini anglay oladigan, tolerantlik, empatiya va madaniyatlararo kommunikatsiyani e'zozlaydigan kasb egasi bo'lishi kerak. Shuning uchun kasbiy kommunikativ ko'nikmalar nafaqat texnik jihatdan, balki qadriyatlar negizida shakllanishi zarur.

Pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsion vositalarning roli. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ kompetentligini shakllantirishda pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar, raqamli vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan:

- Interaktiv elektron ta'lim resurslari (Moodle, Google Classroom, Edmodo va b.) yordamida o'qituvchilar bilan samarali muloqotga kirishish;

- Mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali o'qituvchi-o'quvchi, o'qituvchi-ota-ona, o'qituvchi-hamkasb kommunikatsiyasini mustahkamlash;
- Virtual laboratoriyalar, simulyatsiya vositalari yordamida ixtisoslashtirilgan fanlarni o'qitishda vizual, tinglov va kinestetik kommunikatsiyani uyg'unlashtirish;
- Audio-vizual texnologiyalar (video darslar, podkastlar, real vaqtli konferensiyalar) orqali muloqotni ko'pkanalli tarzda tashkil etish;

bularning barchasi bo'lajak o'qituvchining kommunikativ malakalarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi.

Bo'lajak o'qituvchilar uchun kasbiy kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish – bu shunchaki nutqiy faoliyat emas. Bu — ko'p qatlamli, dinamik, texnologik, axloqiy va psixologik jihatlarni o'zida mujassam etgan kompleks jarayondir. Tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va aksiologik yondashuvlarning integratsiyasi esa bu jarayonning ilmiy asoslangan, zamonaviy va barqaror modelini yaratishga xizmat qiladi.

Ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda zamonaviy ta'lim tizimining barcha jihatlarni modernizatsiya qilishni ko'rib chiqish lozim. Rus tadqiqotchi B.S.Gershunskiy tadqiqotida ta'lim-metodik jarayonlarni isloh qilishning dolzarbligini quyidagicha ta'kidlaydi: “Pedagogik jarayonning

prinsipi qayta ko'rib chiqilishi orqali uning samaradorligini ko'tarish yo'li: o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida tinglovchilarni asosan bajaruvchi, reproduktiv faoliyatdan ijodiy, izlanuvchilik faoliyatiga o'tkazish tarbiya, ta'lim berish va rivojlantirish shakllarini tashkil etish vositalari, maqsadlari, mazmuni va uslublarini qat'iy unifikatsiyalashdan – talabalarning ta'lim olish jarayonlarini individuallashtirish va differensiyatsiyalashga o'tkazish ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini yakka g'oyalikdan – g'oyalar turfa xilligiga, hayotda o'z o'rnini, dunyoqarashini va e'tiqodini, ruhiy rivojlanish yo'lini erkin tanlash imkoniyatini yaratish; texnokratik yo'nalishning tizimli disbalansidan (muvozanatsizligidan) gumanitar yo'nalishlar ustuvorligiga o'tish – o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning tabiat qonunlariga mos keladigan ta'lim va o'quv-o'rganuv o'zaro hamkorligiga erishishga olib keladi”

L.N.Prokoliyenko esa: “... axborot kommunikativ texnologiyalar mavjud o'qitish tizimiga shunchaki qo'shimcha emas, uning roli uch tarkibiy qismli “o'qituvchi-ta'lim oluvchi-o'quvchi” ta'lim tizimidan to'rt tarkibiy qismli tizimga o'tkazishga borib taqalmaydi. Axborot kommunikativ texnologiyalar ta'lim tizimining barcha tarkibiy qismlaridagi, ta'lim mazmunidan boshlab uning tashkiliy shakllarigacha, obektiv o'zgarishlarga olib keladi”

Zamonaviy ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyatda kechayotgan raqamli transformatsiya, ta'lim jarayonining axborotlashtirilishi va kommunikatsiya shakllarining xilma-xillashuvi o'qituvchidan nafaqat kasbiy bilim va metodik tayyorgarlik, balki rivojlangan kommunikativ ko'nikmalarni ham talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda tizimli yondashuv ta'lim jarayonini yaxlit, izchil va ilmiy asoslangan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bo'lajak o'qituvchining individual xususiyatlari va kommunikativ salohiyatini inobatga olgan holda uning kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi. Kompetensiyaviy

yondashuv esa kommunikativ bilim, ko'nikma va qadriyatlarning amaliy faoliyatda qo'llanilish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Aksiologik yondashuv orqali o'qituvchining kasbiy faoliyatida axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy mas'uliyat omillari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Shu bois metodologik yondashuvlarning integratsiyasi asosida kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gershunskiy B. S. XXI asr uchun ta'lim falsafasi. – Moskva: Rossiya pedagogik jamiyati, 2002. – 508 b.
2. Prokoliyenko L. N. Ta'limda kompyuterdan foydalanishning metodologik muammolari // Ta'limda kompyuter: psixologik-pedagogik muammolar. – Elektron manba.
3. Normurodov B. B. Pedagogik muloqot va kasbiy kompetensiya. – Samarqand, 2021.
Hamidov A. A. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchi kompetensiyalarining rivoji. – Toshkent, 2022.